

PRESS-RELIZ
Toshkentda mehnat bozori transformatsiyasiga bag'ishlangan
HR forumi bo'lib o'tdi

2026 yil 22 iyul kuni Toshkent shahridagi **Hyatt Regency Tashkent** mehmonxonasida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamkorligida **"O'zbekiston mehnat bozori transformatsiyasi: yangi tendensiyalar, asosiy o'zgarishlar va innovatsion HR"** mavzusida forum bo'lib o'tdi.

Forum mehnat bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion HR boshqaruvi, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yechimlarini keng joriy etish, shuningdek davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlashga bag'ishlangan muhim muloqot maydoniga aylandi.

Tadbirda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, xususiy sektor va yirik ish beruvchilar, HR sohasi mutaxassislari, ilmiy doiralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Forumning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi o'rinbosari **Marat Jurayev**, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisining o'rinbosari **Abrorxuja Turdaliyev**, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rahbariyati, BMT Taraqqiyot dasturi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari so'zga chiqib, mehnat bozorida islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy kadrlar siyosati va xalqaro hamkorlik masalalariga to'xtaldilar.

Forum doirasida tashkil etilgan panel sessiyalarda mehnat bozori transformatsiyasining muhim yo'nalishlari muhokama qilindi. Jumladan, innovatsion HR boshqaruvi, xalqaro **CIPD** standartlari, davlat va xususiy sektorda inson resurslarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, kadrlar tayyorlash, raqamli xizmatlar hamda sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalar taqdim etildi.

"Mehnat bozorida yangi tendensiyalar" panel sessiyasida mamlakat mehnat bozorida bugungi holatga oid tahlillar e'lon qilindi. 2026 yil 1 iyul holatiga mehnat resurslari **21 million nafarni**, band aholi **15 million nafarni** tashkil etdi. Ishsizlik darajasi esa **4,5 foizga** tushib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6 foiz punktga** kamaydi.

Shuningdek, joriy yildan ishga tushirilgan **Oson ish.uz** raqamli mehnat bozori platformasining imkoniyatlari taqdim etildi. Bugungi kunda platformada **36 mingdan ortiq ish beruvchi** ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular tomonidan **137 mingdan ziyod vakant ish o'rinlari** joylashtirilgan. Platforma ish beruvchilar va ish qidiruvchilarni sun'iy intellekt asosida avtomatik muvofiqlashtirish orqali mehnat bozoridagi hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Panel sessiyasida ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitishning **vaucher tizimi** hamda **2026–2031 yillarga mo'ljallangan "Skill Up"** loyihasi ham taqdim etildi. **3,7 million Shveysariya franki** qiymatiga ega mazkur loyiha doirasida sun'iy intellekt asosida

fuqarolarning qobiliyati va kompetensiyalari baholanib, ularni mehnat bozori ehtiyojlariga mos kasblarga yo'naltirish nazarda tutilgan.

Forum ishtirokchilari, shuningdek, **"Sun'iy intellekt va mehnat bozori: raqobatchimi yoki hamkor?"** mavzusida fikr almashdilar. Qayd etilganidek, sun'iy intellekt mehnat bozori uchun xavf emas, balki mehnat unumdorligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va yangi kasbiy imkoniyatlarni yaratishning muhim omili hisoblanadi.

Forum doirasida mehnat qonunchiligini keng jamoatchilikka sodda va tushunarli yetkazishga qaratilgan **"Mehnat kodeksiga sharh"** elektron platformasi ham taqdim etildi. Xalqaro ekspertlar va mahalliy mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan mazkur loyiha mehnat qonunchiligi normalarini izohlash, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash va qonunchilikka kiritiladigan o'zgarishlar bo'yicha tezkor ma'lumot olish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, Markaziy bank va tijorat banklari ishtirokida **"Yoshlar bilan hamnafas"** dasturi taqdim qilinib, yoshlarni bank-moliya sohasiga jalb etish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va karyera imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Forum doirasida **30 dan ortiq tijorat banki ishtirokida mehnat yarmarkasi** tashkil etildi. Yarmarkada **40 nafar yirik ish beruvchi** tomonidan **200 ga yaqin** bo'sh ish o'rni **Osonish.uz** platformasiga joylashtirildi. Mavjud boshqa vakansiyalarni ham platformaga kiritish jarayoni davom etmoqda.

Yarmarka yakunlariga ko'ra, tijorat banklaridagi bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashish bo'yicha **367 ta murojaat** kelib tushdi. Shundan **110 nafar** nomzod ish beruvchilar tomonidan suhbat bosqichiga tavsiya etildi.

Tadbirda ishtirokchilar tijorat banklaridagi bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish talablari hamda karyera va kasbiy rivojlanish istiqbollari bilan tanishdi. Shuningdek, bank xizmatlari hamda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislardan bevosita tushuntirish va maslahatlar olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Forum yakunida ishtirokchilar mehnat bozorini raqamlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish va davlat, xususiy sektor hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish mehnat bozorining raqobatbardoshligi va aholi bandligini ta'minlashning muhim omili ekanini ta'kidladilar.

"O'zbekiston mehnat bozori transformasiyasi: yangi tendensiyalar, asosiy o'zgarishlar va innovatsion HR" forumi mehnat bozorini modernizasiya qilish, innovatsion boshqaruvni rivojlantirish va zamonaviy kadrlar siyosati bo'yicha ilg'or tajribalarni birlashtirgan muhim muloqot platformasi sifatida o'z ishini muvaffaqiyatli yakunladi.